Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
60220300-Tarix 1-bosqich yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun
« O‘zbekiston tarixi» fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Mavzu raqami	1-QISM — Oson: asosiy tushunchalar va faktlar	2-QISM — O‘rtacha: voqealarni tushuntirish	3-QISM — O‘rtacha: sabab va natijalarni izohlash	4-QISM — O‘rtacha: tarixiy jarayonlarni taqqoslash	5-QISM — O‘rtacha: umumlashtirish va oddiy xulosa
1	O‘zbekiston tarixi fani nimani o‘rganadi? Uning predmeti va obyektini tushuntiring.	O‘zbekiston hududidagi paleolit yodgorliklaridan uchtasini ayting.	Sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishi qadimgi aholi hayotini qanday o‘zgartirdi?	Qadimgi O‘rta Osiyoda dastlabki boshqaruv shakllari qanday paydo bo‘lgan?	Qadimgi Xitoy manbalarida Davan (Farg‘ona) haqida qanday ma’lumotlar berilgan?
1	O‘zbekiston tarixini o‘rganishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilinadi?	Mezolit va neolit davrlarining ikki asosiy farqini tushuntiring.	Bronza davri yodgorliklaridan Sopollitepa va Oltintepa haqida qisqacha gapiring.	Mehnat taqsimoti va mahsulot ayirboshlash jamiyat hayotiga qanday ta’sir qilgan?	Davan davlatining xo‘jaligi va Xitoy bilan munosabatlari haqida gapiring.
2	O‘zbekiston tarixini o‘rganishda yozma va arxeologik manbalarning ahamiyati nimada?	Eneolit va bronza davri manzilgohlariga misollar keltiring.	Urug‘chilik jamoasi qanday paydo bo‘lgan va uning asosiy belgilari nimalar?	O‘rta Osiyoda dastlabki davlatlar qanday sharoitda vujudga kelgan?	Qang‘ davlatining joylashuvi va qo‘shni hududlar bilan aloqalarini tushuntiring.
2	Tarixni o‘rganishda yordamchi tarix fanlariga misollar keltiring.	Ilk temir davrida odamlarning xo‘jaligi va boshqaruvida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?	Qadimgi odamlar qanday asosiy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan?	Ilk davlatchilikning asosiy belgilarini oddiy misollar bilan tushuntiring.	Qadimgi davlatlarda hukmdor va kengashlarning vazifalari qanday bo‘lgan?
3	Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalar rivojidagi o‘rnini tushuntiring.	O‘rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlardan ikkitasini ayting.	Ona urug‘i jamoasining xususiyatlarini tushuntiring.	Qadimgi Xorazm davlati haqida yozma va arxeologik manbalar nimalarni bildiradi?	Xorazmning siyosiy taraqqiyotida mustaqil boshqaruv qanday ahamiyat kasb etgan?
3	Sivilizatsiya tushunchasi nimani anglatadi? Oddiy misol keltiring.	“Avesto” qadimgi O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda nima uchun muhim?	Samarqand makoni va Ko‘lbuloq topilmalari qadimgi hayot haqida nimalarni ko‘rsatadi?	Ko‘zaliqir va Qal’aliqir yodgorliklari Xorazm tarixini o‘rganishda nima uchun muhim?	O‘zbekiston hududidagi qadimgi shahar xarobalaridan uchtasini ayting.
4	O‘zbekiston hududida qadimgi madaniyat rivojlanganini qaysi yodgorliklar ko‘rsatadi?	O‘rta Osiyo xalqlari Ahamoniylar bosqiniga qanday qarshilik ko‘rsatgan?	Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga Joytun hamda Kaltaminor madaniyatlaridan misollar keltiring.	Qadimgi Xorazm aholisining xo‘jaligi va madaniy hayoti haqida gapiring.	Kat shahri Xorazm tarixida qanday o‘rin tutgan?
4	O‘zbekiston hududidagi qadimgi shahar xarobalaridan ikkitasini ayting va ularning ahamiyatini tushuntiring.	Spitamenning yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi haqida gapiring.	Ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari qanday shakllangan?	Qadimgi Baqtriya davlati haqidagi ma’lumotlar qaysi manbalarda uchraydi?	Yuechji qabilalarining O‘rta Osiyoga kelishi qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan?
5	Insonning kelib chiqishi haqidagi ilmiy qarashlarni qisqacha bayon qiling.	Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari haqida asosiy ma’lumotlarni ayting.	Metall qurollarning paydo bo‘lishi nima uchun muhim bo‘lgan? Sarazm yoki Zamonbobodan misol keltiring.	Baqtriyaning joylashuvi va Baqtra kabi qadimgi markazlari haqida gapiring.	Kushon davlati qaysi hududlarda shakllangan va qanday rivojlangan?
5	Antropogenez deganda nima tushuniladi?	Antik davrda Xorazm madaniyati qanday rivojlangan?	Mehnat taqsimoti nima? Uning dastlabki ko‘rinishlarini tushuntiring.	Qadimgi davlatlarning savdo va madaniy aloqalariga misollar keltiring.	Kushonlar hokimiyatni qanday qo‘lga kiritgan?
6	Qadimgi odamlarning yashash joylari va turmush tarzi haqida gapiring.	Qang‘ va Davan davlatlarining joylashuvi hamda xo‘jaligini taqqoslang.	Jarqo‘ton yodgorligi ilk shahar hayoti haqida qanday ma’lumot beradi?	Sug‘diyona qayerda joylashgan va uning asosiy tarixiy markazlari qaysilar?	Kushon davlati hududining kengayishi nimaga olib kelgan?
6	O‘zbekiston hududida qadimgi odamlar yashaganini qaysi topilmalar tasdiqlaydi?	Kushon davlati qachon va qanday tarixiy sharoitda shakllangan?	Ona urug‘i munosabatlaridan ota urug‘i munosabatlariga o‘tishga qanday omillar ta’sir qilgan?	Afrosiyob va Erqo‘rg‘on yodgorliklari Sug‘d tarixi haqida nimalarni ko‘rsatadi?	Yunon-Baqtriya davlati inqiroziga qanday omillar ta’sir qilgan?
7	Ibtidoiy jamiyatning asosiy bosqichlarini va odamlarning mashg‘ulotlarini ayting.	Kushonlar davridagi madaniy hayotdan ikki misol keltiring.	Temirdan foydalanish dehqonchilik va hunarmandchilikni qanday o‘zgartirdi?	Ahamoniylar O‘rta Osiyoga qanday kirib kelgan?	Kudjula Kadfiz, Vima Kadfiz va Kanishka haqida asosiy ma’lumotlarni ayting.
7	Paleolit davri qanday davr? Qadimgi odamlarning hayotidan misollar keltiring.	Antik davr O‘rta Osiyo madaniyatining muhim yutuqlarini ayting.	Qadimgi jamoalarda mehnat taqsimoti qanday rivojlangan?	To‘maris va Shiroq haqidagi rivoyatlar qanday tarixiy kurashlarni aks ettiradi?	Kushonlar davrida dehqonchilik va savdo qanday rivojlangan?
8	Mezolit davrining asosiy xususiyatlari va Machay yoki Obishir manzilgohi haqida gapiring.	Buyuk ipak yo‘li nima va u nima uchun muhim bo‘lgan?	Miloddan avvalgi I ming yillikda O‘rta Osiyo jamiyatida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?	Ahamoniylar davrida satrapliklar nima vazifani bajargan?	Kushon davlati O‘rta Osiyo tarixida nima uchun muhim?
8	Paleolit davrining asosiy bosqichlarini sanang.	Kushon davlatida boshqaruv va madaniyatning asosiy xususiyatlarini tushuntiring.	Qadimgi O‘rta Osiyo aholisining asosiy guruhlari va mashg‘ulotlarini ayting.	Satrapliklarda soliq yig‘ish va boshqaruv qanday tashkil etilgan?	Kushonlar davridagi diniy e’tiqodlar va madaniy yodgorliklarga misollar keltiring.
9	Selung‘ur va Ko‘lbuloq kabi ilk paleolit yodgorliklari haqida nimalarni bilasiz?	Qadimgi savdo yo‘llaridan ikkitasini ayting va vazifasini tushuntiring.	Miloddan avvalgi I ming yillikda dehqonlar va chorvadorlarning turmushini taqqoslang.	Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishi qanday kechgan?	Oromiy yozuvi bilan qadimgi mahalliy yozuvlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lgan?
9	Teshiktosh va Obirahmat yodgorliklari nima bilan mashhur?	Zardushtiylikning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat?	“Avesto” orqali qadimgi aholining hayoti haqida nimalarni bilish mumkin?	Spitamen boshchiligidagi qarshilik harakatining sababini tushuntiring.	Buyuk ipak yo‘li O‘rta Osiyo savdosiga qanday foyda keltirgan?

10	Olovdan foydalanish qadimgi odamlar hayotini qanday o‘zgartirdi?	Ellinistik davlatlar O‘rta Osiyo tarixida qanday o‘rin tutgan?	Zardushtiylikning “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyilini tushuntiring.	Yunonlar hukmronligi davrida Baqtriya va Sug‘diyona hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?	Bronza davrida dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishini tushuntiring.
10	So‘nggi paleolit davri yodgorliklaridan misollar keltiring.	Davlatning paydo bo‘lishiga qanday ehtiyojlar sabab bo‘lgan?	Qadimgi yozuvning paydo bo‘lishi jamiyatga qanday foyda keltirgan?	Salavkiylar davrida O‘rta Osiyodagi siyosiy vaziyat qanday bo‘lgan?	Buyuk ipak yo‘li qachon shakllangan va qaysi hududlarni bog‘lagan?
11	Paleolit davrida mehnat qurollari qanday o‘zgargan?	Qadimgi Xorazm va Baqtriya yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?	O‘rta Osiyodagi ilk shaharlarning asosiy belgilarini sanang.	Aleksandr vafotidan keyin uning davlati nima sababdan bo‘linib ketgan?	Lojuvard va Shoh yo‘llari qadimgi savdoda qanday vazifa bajargan?
11	Neandertal va hozirgi qiyofadagi odamlar haqida asosiy ma’lumotlarni ayting.	Ilk davlatlarga xos uchta belgini sanang.	“Avesto”dagi axloqiy qarashlardan ikkitasini ayting.	Ellinistik davrda shaharlar va savdo qanday rivojlangan?	“Buyuk ipak yo‘li” atamasi qachon ilmiy muomalaga kirgan?
12	Tosh qurollarining takomillashuvi odamlar hayotiga qanday ta’sir qilgan?	Paleolit davrida O‘rta Osiyo aholisi qanday yashagan?	“Avesto”da insonning yaxshi xulq-atvori qanday tushuntirilgan?	Qadimgi diniy e’tiqodlardan ikkitasini ayting va tushuntiring.	Buyuk ipak yo‘li orqali qanday mahsulotlar va g‘oyalar tarqalgan?
12	Ona urug‘i jamoasi nima va u qanday shakllangan?	Ibtidoiy jamoa tuzumi deganda nima tushuniladi?	Ilk temir davrida O‘rta Osiyo xo‘jaligida qanday yangiliklar yuz bergan?	Bronza davrida o‘troq dehqonchilik va oilaviy munosabatlar qanday o‘zgargan?	Amir Temur davrida savdo yo‘llariga qanday e’tibor berilgan?
13	Mezolit davrida odamlarning mashg‘ulotlari qanday o‘zgargan? Misol keltiring.	O‘zbekiston hududining tabiiy sharoiti qadimgi aholining turmushiga qanday ta’sir qilgan?	Davlat nima? Qadimgi davlatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillarni ayting.	Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarining o‘xshash jihatlarini ayting.	Buyuk ipak yo‘li O‘rta Osiyoning madaniy aloqalariga qanday ta’sir qilgan?
13	O‘q-yoyning paydo bo‘lishi ovchilikka qanday ta’sir ko‘rsatgan?	Ibtidoiy to‘da bilan urug‘chilik jamoasining farqi nimada?	Ilk shaharlarning rivojlanishi davlatchilikka qanday yordam bergan?	Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi qanday kechgan?	Oltintepa, Sopollitepa va Jarqo‘ton ilk shahar madaniyati haqida nimalarni ko‘rsatadi?
14	Zarautsoy yoki Sarmishsoy qoyatosh rasmlari qadimgi hayot haqida nimalarni bildiradi?	Selung‘ur yodgorligi qadimgi tarixni o‘rganishda nima uchun muhim?	Nima uchun qadimgi shaharlar davlat boshqaruvi markaziga aylangan?	Diodot va Evtidem davrida Yunon-Baqtriya davlatida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?	O‘zbekiston tarixini qanday asosiy davrlarga ajratish mumkin?
14	Neolit davrining asosiy belgilarini Joytun yoki Kaltaminor madaniyati misolida tushuntiring.	O‘zbekiston hududidagi qadimgi madaniyat markazlariga misollar keltiring.	Eneolit davri xususiyatlarini Sarazm yoki Anov misolida tushuntiring.	Ellin madaniyati O‘rta Osiyo san’ati va shaharlariga qanday ta’sir qilgan?	Tarixni davrlarga ajratish nima uchun kerak?
15	Markaziy Farg‘ona va Hisor madaniyati yodgorliklari haqida qisqacha gapiring.	Teshiktosh g‘oridan topilgan yodgorliklarning ahamiyatini tushuntiring.	Kulolchilik va to‘qimachilik kabi hunarlarning paydo bo‘lishi nimaga olib kelgan?	Qang‘, Davan va Xorazm davlatlarining bir-biridan farqli jihatlarini ayting.	O‘rta Osiyo tarixini davrlashtirishda hududiy xususiyatlar nima uchun hisobga olinadi?
15	Ibtidoiy davrda dehqonchilik va chorvachilik qanday paydo bo‘lgan?	Qadimgi odamlarning olovdan foydalanishi va tabiatga moslashishini tushuntiring.	O‘q-yoy ixtirosi qadimgi aholining mashg‘ulotlariga qanday ta’sir qilgan?	Antik davrda O‘rta Osiyo shaharlarida savdo va hunarmandchilik qanday rivojlangan?	Tarixiy va arxeologik davrlashtirishning farqini oddiy misolda tushuntiring.